

ISSIQXONADA BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINING TA'SIRI

X.K. Bekmuradova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15235403>

Annotatsiya. Yilning barcha mavsumlarida aholini yangi sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash yopiq grunt sabzavotchiigi zimmasiga tushadi. Shuning uchun xam bu soxa respublikamizda jadal rivojlanayotgan soxalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yopiq grunt sabzavotchiligi qishloq xo'jaligining yil davomida faoliyat ko'rsatadigan murakkab va mashaqqatli mexnat talab qiluvchi tarmog'i bo'lib hisoblanadi.

Yetishtiriladigan hamma muddatlarda ham ekiladigan maydoni va ishlab chiqarish xajmiga qarab bodring yopiq gruntning eng yetakchi sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar yetishtiriladigan nav va duragaylarning hosildorligiga yetishtirish texnologiyasi xam katta ta'sir ko'rsatishini, olingan natijalar qishgi - baxorgi mavsumda xar xil ekish sxemalarida bodring duragaylarini yetishtirganda eng yuqori rentabellik 80 x 40 ekish sxemasida (175%) kuzatilganligini va bu sxemada ekish maqbulligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar. Sabzavotchilik, yopiq grunt, hosildorlik, nav, duragay, ekish qalinligi, yetishtirish sharoiti.

Kirish. Yopiq grunt sabzavotchiligi zimmasida axolini vitaminlarga va mineral moddalarga boy, yuqori biologik qimmatga ega, qator zarur komponentlarni saqllovchi ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasi turadi.

Yopiq grunt xamma mavsumlarda sabzavot ekinlarini yetishtirishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Bunday qiyinchiliklar qatoriga yetishtirish sharoiti bilan bog'liq qiyinchiliklar kiradi.

Yuqori hosildor nav va duragaylar, ilmiy asoslangan sanoat texnologiyasi, ekin yetishtiriladigan inshoot maydonidan intensiv foydalanish – ishlab chiqarishning yuqori rentabelligini ta'minlaydi.

Bodring yopiq grunt xamma mavsumlarda yetishtiriladigan asosiy sabzavot ekinlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U hozirgi vaqtda yopiq grunt umumiy maydonining 50 – 80% ini egallaydi va yuqori rentabelli ekinlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Issiqxonada xar bir duragay uchun optimal ekish meyorini tanlash va optimal ekish sxemasiga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Xamma vaqt xam xarajatlar ko'p talab etiladigan issiqxonada yuqori rentabellikka ega bo'lish uchun tub sonini oshirish ijobiy va kutilgan natijani bermaydi. Tub sonini oshirib ekish o'simliklarga zarar yetkazadi, ularning nobud bo'lishiga va hosilning qisqarishiga olib keladi. Bular o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va mega tugishi uchun zarur ozuqani yetkazib bermaganligi, tub orasida shamol yaxshi yurmasligi, shu sababli zamburug' va turli virus kasalliklarining va hashoratlarning rivojlanishi, quyosh nurlarining yetishmasligi sababli o'simlik tubining o'sib ketishi, shu bilan birga tig'iz ekilish sababli meva tugish uchun zarur ozuqaning yetishmasligi sababli ro'y beradi.

Tadqiqotlarning maqsad va vazifalari. Samarqand viloyati sharoitida yopiq grunt xamma mavsumlarda yetishtirish uchun mos bodring duragaylarini tanlash va bodring seleksiyasida muxit va genotip ta'sirini o'rganish tadqiqotlarning maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Tajribalarimiz qishgi – baxorgi ekish muddatida olib borildi va tajribalarni o'tkazish mobaynida bodring geterozis duragaylarining turli yetishtirish sxemalarining hosildorlikka

ta'sirini o'rganish maqsadida fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchovlar va hosildorlikni hisoblash bo'yicha baxolash ishlari olib borildi.

Tadqiqotlarni o'tkazish uslubi.

Rossiyaning urug'chilik firmalaridan keltirilgan va tajribalarda tanlab olingan Kuraj F₁, Blyuz F₁, Asker F₁, Avrora F₁, Dluliya F₁, Media F₁, Effekt F₁ geterozis duragaylarining turli ekish sxemalarida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi o'rganildi.

Fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchovlar va hosildorlikni aniqlash «Методические рекомендации по проведению опытов с овощными культурами в сооружениях защищенного грунта» metodikasi bo'yicha aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning taxlili. Olib borilgan tajribalarimizda Kuraj F₁, Avrora F₁ geterozis duragaylarining turli ekish sxemalarida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi o'rganildi. Duragaylar 80 x 25, 80 x 30, 80 x 40 va 80 x 50 ekish sxemalaridan foydalanildi. Nazorat sifatida 80 x 30 ekish sxemasi olindi.

Oziqa maydoni o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaganligi aniqlandi, lekin, maxsuldorlik ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Turli ekish sxemalarida kuzgi – qishgi muddatda bodring geterozis duragaylarini yetishtirishning hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri.

Ekish sxemalari, sm	1m ² dagi o‘simliklar soni, dona	Hosildorlik	
		kg/m ²	Nazoratga nisbatan. %
Kuraj F ₁			
80 x 25	3,7	9,9	90,8
80 x 30(n)	3,5	10,9	100
80 x 40	3,1	12,8	117,4
80 x 50	2,6	11,2	102,7
Avrora F ₁			
80 x 25	3,7	7,3	89,0
80 x 30(n)	3,5	8,2	100
80 x 40	3,1	9,6	117,0
80 x 50	2,6	8,8	107,3

80 x 25 ekish sxemasida 1 m² maydonga 3,7 tub ko'chat, 80 x 30 ekish sxemasida 3,5 tub, 80 x 40 ekish sxemasida 3,1 tub va 80 x 50 ekish sxemasida 2,6 tub ko'chat ekildi.

Eng yuqori hosil o'rganilgan duragaylarning barchasida 80 x 40 ekish sxemasida kuzatildi. Bu ekish sxemasida Kuraj F₁ duragayida hosildorlik 12,8 kg/ m² ni, Avrora F₁ duragayida esa 9,6 kg / m² ni tashkil etdi. Hosildorlik nazoratga nisbatan 80 x 40 ekish sxemasida Kuraj F₁ duragayida 117,4 % ni, Avrora F₁ duragayida 117,0 % ni ko'rsatdi.

Eng past ko'rsatkich 80 x 25 ekish sxemasida kuzatildi. Bunga ko'ra Kuraj F₁ duragayida hosildorlik 9,9 kg/ m² ni, Avrora F₁ duragayida esa 7,3 kg / m² ni tashkil etdi. 80 x 50 ekish sxemasida xar bir tubdan olingan hosil yuqori bo'ldi, lekin tub soni pastligi sababli 1m² dan olingan hosil 80 x 40 ekish sxemasiga qaraganda past bo'lganligi kuzatildi.

O'rganilgan ekish sxemalarida eng maqbul ekish sxemasi 80 x 40 ekanligi aniqlandi.

Xulosalar. Qishgi - baxorgi mavsumda xar xil ekish sxemalarida bodring duragaylarini yetishtirganda eng yuqori hosildorlik 80 x 40 ekish sxemasida (12,8 – 9,6 kg/m²) kuzatildi va bu sxemada ekish maqbul degan xulosaga kelindi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекмурадова, Х. К., & Исмоилов, А. И. Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. *ББК 65.2 C56*, 58.
2. Бекмурадова, Х. К., Исмоилов, А. И., & Ахмадалиев, Б. Ж. (2019). ОЦЕНКА ИСХОДНОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ СОЗДАНИЕ НОВЫХ УСТОЙЧИВЫХ К ВИРУСНОЙ МОЗАИКЕ СОРТОВ ТОМАТА. *Актуальные проблемы современной науки*, (3), 170-173.
3. С.Ф.Ващенко. Овощеводство защищенного грунта. М. 1984.
4. С.Ф. Гавриш. Гибрид огурца F1: Технология выращивания партенокарпического огурца. *NP «НИИОЗГ»* 2005. 152с
5. ovorot.ru/ogurez/zas_grunt.h
6. green_houses.ru/cucumber_in_gree.
7. Бекмурадова, Х. К., & Ёринова, М. (2022). ИССИҚХОНАДА БОДРИНГ ПАРТЕНОКАРПИК ДУРАГАЙЛАРИНИНГ ҲОСИЛ ТЎПЛАШ ДИНАМИКАСИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 1110-1113.
8. Бекмурадова, Х. К., А. И. Исмоилов, and Б. Ж. Ахмадалиев. "Оценка исходного материала для создание новых устойчивых к вирусной мозаике сортов томата." *Актуальные проблемы современной науки* 3 (2019): 170-173.
9. Бекмурадова, Х. К., and А. И. Исмоилов. "Самарканд, Узбекистан Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan." *ББК 65.2 C56* 58.
10. Bekmuradova, Xurshida Karimovna, and Ibragim Tashkentovich Ergashev. "HIMOYALANGAN GRUNTDA BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA TURLI EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI." *SCHOLAR 2.5* (2024): 70-76.
11. Ergashev, Ibragim Tashkentovich, Xurshida Karimovna Bekmuradova, and Feruza Ibragimovna Toshkentbaeva. "X-VIRUSINING KARTOSHKA MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI." *SCHOLAR 2.5* (2024): 77-83.
12. Бекмурадова, Х. К., and А. И. Исмоилов. "ОЦЕНКА СТЕПЕНИ ЗАРАЖАЕМОСТИ СОРТООБРАЗЦОВ ТОМАТА С ToMV." *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК*. 2020.